

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11175275>

KONSTITUTSIYA - SIVILIZATSIYASI

Kimsanboyeva Zuhra Abdukarimovna

IIV 1-son Toshkent akademik litseyi o'qituvchisi

kimsanboyevazuxraxon@gmail.com

Ibragimov Adham Hayidmurodovich

IIV 1-son Toshkent akademik litseyi o'qituvchisi

Ro'ziboyeva Shaxrizoda

IIV 1-son Toshkent akademik litseyi o'quvchisi

Eshmurodov Shaxriyor Shuxrat o'g'li

IIV 1-son Toshkent akademik litseyi o'quvchisi

Ne'matov Sarvar G'ayrat o'g'li

IIV 1-son Toshkent akademik litseyi o'quvchisi

ANNOTATSIYA

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lib, u davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimi, ularning vakolati va shakllanish tartibi, saylov tizimi, fuqarolar huquq va erkinliklari, hamda sud tizimi faoliyati belgilab beriladi. Konstitutsiya davlatdagi barcha qonunlarning asosi hisoblanib, u davlatchilik belgisidir. Tarixdan bizga ma'lumki konstitutsiyaning kelib chiqish tarixi qadim o'tmishga borib taqaqladi ushbu maqola asosan tarixiy davrlarda konstitutsiya sivilizatsiyasiga bag'ishlangan bo'lib tarixiy faktlar asosida yondashilgan.

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, qonun, hokimiyat, sud, davlat, kodeks, AQSH, Rim, Polsha.*

ABSTRACT

The constitution is the main law of the state, it defines the structure of the state, the system of power and management bodies, their powers and the order of their formation, the electoral system, the rights and freedoms of citizens, and the functioning of the judicial system. The constitution is considered the basis of all laws in the state, and it is a sign of statehood.

Key words: *Constitution, law, government, court, state, law code, USA, Rome, Poland.*

KIRISH

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) - davlatning asosiy qonuni. Konstitutsiya davlat tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimi, ularning vakolatlarini shakllantirish, saylov tizimini, fuqarolar huquq va erkinliklarini, jamiyat va shaxs munosabatlarini, sud tizimi, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi. Amal qilish muddatlari bo‘yicha konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo‘lish mumkin. Davlat faoliyatining turli sohalarida konstitutsiyaga rioya qilinishini nazorat etish Oliy sud yoki Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklanib kelinadi. “Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimda mavjud bo‘lgan. Amir Temur va Temuriylar davrida “Temur Tuzuklari” kitobi Sharq va Osiyo mamlakatlari uchun xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. Unda shariat qonunlari bilan bir qatorda O‘rta Osiyo xalqlari hayotida kuchli ta’sir o‘tkazadi. Yevropadagi tarixiy taraqqiyot hozirgi kunda mavjud bo‘lgan konstitutsiyani ikkinchi guruhini vujudga keltiradi. Birinchi guruhi bugungi zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi vaziyatda qabul qilingan eski konstitutsiyalardir:

- Konstitutsiyalarga 1787-yilgi AQSH Konstitutsiyasi;
- 1831-yilgi Belgiya Konstitutsiyasi;
- 1874-yilgi Shveysariya Konstitutsiyasini keltirib o‘tish mumkin;[1].

Ikkinchi guruhga XX asrning ikkinchi yarmida qabul qilingan konstitutsiyalari kiradi. Dastlab konstitutsiyalardan huquq va erkinliklar institutining, konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmi va ijtimoiy muammolarga murojaat qilish sohalarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solishning ko‘payishi bilan farqlanadi. Dunyodagi ilk Konstitutsiya AQShda ishlab chiqilgan deb hisoblaydilar, biroq bunday emas. Undanda qadimiyrog‘i **Polsha davlati** konstitutsiyasidir. Manbalarda keltirilishicha 1792-yilda qabul qilingan ekanligi ma’lumdir[2].

Yevropa Ittifoqi-konstitutsiyasi ustida Yevropaning eng yetuk mutahassislari ishlashgan. Hujjatni darhol 20 ta tilga o‘girilib, dunyodagi eng keng tarqalishi va ko‘p tomonlama maqullangan hujjatga aylanganligidir. Ushbu hujjat umum Yevropa fikrining paydo bo‘lishiga hissa qo‘sholmadi. Yevropa mamlakatlari umummilliy referendumida yetarli ovoz to‘plamadi.

Isroilda-yagona konstitutsiya o‘rniga asosiy qonunlar to‘plami amal qiladi. Ushbu davlatda diniy va dunyoviy qonunlar o‘rtasida yuz beradigan ziddiyatlarni bir hujjat doirasida to‘plab hal etish maqsadga muvofiq bo‘lgan.

Hindiston-konstitutsiyasi 1950-yilda qabul qilingan. Ushbu qonun hajmi jihatidan dunyodagi eng katta qonunlar to‘plami sifatida qaralgan.

Yaponiya-konstitutsiyasining 3 asosiy tamoyili bor: xalq suvereniteti, insonning asosiy huquqlarini hurmat qilish, patsifizm (millatning suveren huquqi sifatida urushdan voz kechish).

Buyuk Britaniya-konstitutsiyasi o‘ziga xos jihati shundaki, davlatning asosiy qonuni deb atash mumkin bo‘lgan yagona hujjatning mavjud emasligidadir.

AQSh-konstitutsiyasida “demokratiya” so‘zi yodga olinmagan. Bundan tashqari, ushbu hujjat rekord darajada qisqa bo‘lib, 4,4 mingta so‘zdan iborat.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi-konstitutsiyasi sovet mintaqasida birinchi bo‘lib qabul qilingan.

Ekvador-tabiat huquqini konstitutsiya bilan mustahkamlagan dunyodagi ilk mamlakatga aylangan.

Malta-konstitutsiyasi o‘z mamlakatini neytral, tinchlik sari intiluvchi sifatida belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bir-biridan farq qiluvchi yuridik va haqiqiy konstitutsiya tushunchalari mavjud. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma'lum huquqiy normalar tizimi tashkil etadi. Haqiqiy konstitutsiya esa, shu munosabatlarning o'zi, ya'ni real mavjud munosabatlardir. Konstitutsiya o'z shakliga ko'ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo'linadi, kodekslashtirilgan konstitutsiya-konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi yozma hujjat hisoblanib kelinmoqda. Agar masala bir nechta yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, bunda konstitutsiya kodekslashtirilmagan bo'ladi. Aralash turdagi konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud pretsedentlari bilan birga, odatlar hamda nazariy sharhlarni o'z ichiga olib, ayrim hollarda yozilgan bo'ladi. O'zgartirish kiritish usuli bo'yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo'lish mumkin. Ular avvalo, oddiy qonun qabul qilish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin. Keyingisi maxsus takomillashtirilgan tartibda o'zgartirilishi mumkin[3].

NATIJALAR

O'zbekiston davlatchilik tarixida ham bir necha marta Konstitutsiyalar qabul qilingan, ular: 1928, 1937, 1978 va 1992-yilgi Konstitutsiyalardir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan bo'lib, 30-yildan ortiq amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob hamda 128 moddadan iborat bo'lib, unga 16 marotaba o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. 2021-yilning 7-dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiya kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigida Asosiy qomusga quyidagi 9 ta yo'nalish bo'yicha o'zgartirishlar kiritishni taklif qilgandi: **Ilgari amal qilib kelgan "davlat - jamiyat - inson" tamoyilini "inson -jamiyat - davlat" deb o'zgartirilishi, uni milliy qonunchilik va huquqiy amaliyotda mustahkamlash; Iqtisodiy islohotlar jarayonida inson manfaatlarini ta'minlash; "Jamiyat islohotlar tashabbuskori"** degan ezgu g'oya doirasida asosiy qonunda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va

maqomini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlash; Bosh qomusda oila institutini rivojlantirish, ezgu insoniy qadriyatlarni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash bo'yicha konstitutsiyaviy asoslarni belgilash; Yoshlarning huquq va manfaatlarini to'la ta'minlash maqsadida yoshlar sohasidagi davlat siyosati, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasi, ularning huquq va burchlarini konstitutsiyaviy darajada aks ettirish;

MUHOKAMA

“Yangi O‘zbekiston - ijtimoiy davlat” tamoyilini konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlash; Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi tizimning samarasini oshirish maqsadida Konstitutsiyada bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, nogironlar, keksa avlod vakillarining huquqlarini ishonchli himoya qilish masalalarini aks ettirish; Konstitutsiyaga ekologiyaga oid maxsus boblar kiritish; Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasi bo'lmish bog'cha, maktab, oliy ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish masalalarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yish. 2022-yil 18-mart kuni Prezident tibbiyot xodimlari bilan uchrashuvda tibbiy sug'urta shakllarini rivojlantirish, ekologiya oqibatida fuqarolar sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini davlat zimmasiga yuklash, tibbiyot xodimlarining yuksak maqomini ta'minlash uchun Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritishni taklif etgandi[4]. Yangilanayotgan konstitutsiya O'zbekiston jamiyatining evolyutsion rivojlanishidan kelib chiqib hayotiy zaruriyatdir, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun o'ta ahamiyatlidir, adolatli jamiyat qurish yo'lida qilinayotgan ulkan qadamdir. So'nggi olti yilda erishgan yutuqlarimizni (xususan iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so'z va e'tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab cheklovlarni olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit, debitor-kreditor masalalaridagi muammolar hal qilingani, ortga qaytmasligini ishonchli konstitutsiyaviy himoyasini ta'minlash, ushbu erishilgan yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz emin-erkin foydalanishi uchun, ularni albatta Konstitutsiyada muhrlab qo'yishimiz zarurligi. Jahonda 100 million aholi o'z hayotini saqlash uchun, boshqa yurtlardan boshpana izlab yurgani; oziq-ovqat yetishmasligi, energiya

resurslari tanqisligi, pandemiya kabi global muammolar rivojlangan davlatlar aholisini ham jiddiy o‘ylantirib qo‘yganligi, bularning barchasi insoniyatga ta’sir ko‘rsatishi; Mintaqamizdagi vaziyat ham bizni tashvishga solidi. Mamlakatimiz katta davlatga aylanib borayotganligi, aholimiz 2040-yilga borib, 50 millionga yetishi, ularning yarmidan ko‘pi yoshlar bo‘lishi, ularga munosib sharoit qilib berish uchun, barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo‘lishi lozimligi.

XULOSA

Bularning barchasi uchun mustahkam huquqiy poydevor zarur bo‘lishi, Yangi O‘zbekistonga yangilanayotgan Konstitutsiya kerakligini ko‘rsatayotganligi. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida O‘zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda, yangilangan konstitutsiya qabul qilindi. Yangilangan Konstitutsiyagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Asosiy qonunimizning 65 % matni xalqimiz takliflari asosida yangilandi[5]. Yangilangan Konstitutsiyaning asosiy, prinsipial yangiliklari quyidagilar hisoblanadi: O‘zbekiston - suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi. Konstitutsiyamizning 1-bo‘lim, 1-bob, 1-moddasida: “O‘zbekiston-boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi” deyilgan. O‘zbekiston - ijtimoiy davlat deb belgilandi. Ijtimoiy, bu - insonga e’tibor va g‘amxo‘rlik, degani. Davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobarga ko‘paytirildi. O‘zbekiston - huquqiy davlat deb belgilandi va inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi etib qo‘yildi[6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 1992.
3. Lex.uz.,03/23/837/0241-son.
4. Jo‘rayev N., Fayzullayev T. O‘zbekistonning yangi tarixi. T., 2009.
5. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. T.,2005.